

KOMPLEKS RAQOBAT KO'RSATKICHI METODOLOGIYASINI O'ZBEKISTON BANK TIZIMIGA TATBIQ ETISH MEXANIZMLARI VA KUTILAYOTGAN NATIJALAR

Qulmetov Mansurbek Ro'zmatovich

Diplomat university "Iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar"

kafedrasi dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20341029>

Annotatsiya. Ushbu tezisda muallif tomonidan ishlab chiqilgan Kompleks raqobat ko'rsatkichi (KRK) va Raqamli raqobat indeksi (RRI) metodologiyasini O'zbekiston bank tizimiga tatbiq etish mexanizmlari «Ipoteka-bank» ATIB va «Agrobank» ATB faoliyati misolida ochib berilgan. Tatbiq natijasida «Ipoteka-bank»da NPL ulushi 4,1 foizdan 2,6 foizga (5,2 foiz punktga), «Agrobank»da esa kredit portfeli 36,5 foizga oshgan. KRK qiymatlari ikki bank uchun 2030 yilga qadar prognoz qilinib, ikkala bank ham «juda yuqori raqobat» ($KRK \geq 0,70$) zonasiga o'tishi kutilmoqda.

Kalit so'zlar: Kompleks raqobat ko'rsatkichi (KRK), Raqamli raqobat indeksi (RRI), bank metodologiyasini tatbiq etish, prudensial ko'rsatkichlar, OTP Group, davlat banklarini tijoratlashtirish.

Bank sektorida raqobatni baholash bo'yicha har qanday metodologik yondashuv o'zining haqiqiy qiymatini faqat amaliy tatbiq etish orqali namoyon qiladi. Shu bois, ushbu tezisda Kompleks raqobat ko'rsatkichi (KRK) va Raqamli raqobat indeksi (RRI) metodologiyasini O'zbekiston bank tizimiga tatbiq etish mexanizmlari ikki yirik tijorat banki — «Ipoteka-bank» ATIB va «Agrobank» ATB — faoliyati misolida tahlil qilinadi.

2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra «Agrobank» aktivlari 103 597 mlrd so'mga yetib, O'zbekiston Milliy bankidan keyingi ikkinchi eng yirik tijorat banki maqomini egalladi; «Ipoteka-bank» esa 54 728 mlrd so'm aktivlar bilan respublikaning oltinchi yirik banki sifatida shakllandi¹. Bu ikki bank o'rtasidagi 1,89 baravarlik aktivlar farqi va aksiyadorlik tuzilmasidagi tub farq metodologiyaning kalibrlash imkoniyatlarini sinash uchun maqbul empirik asos hisoblanadi.

«Ipoteka-bank» ATIB da KRK metodologiyasi to'rt yo'nalishdagi strategik hujjatlarga integratsiyalash orqali tatbiq etildi. Birinchi yo'nalishda bank 2026-yilga mo'ljallangan biznes-rejasiga kredit portfeli rentabelligi va muammoli kreditlar (NPL) ulushi o'rtasidagi korrelyatsiyani hisobga oluvchi kompleks yondashuvni kiritdi. Bankning 31-dekabr 2025-yil holatidagi rasmiy hisobotiga ko'ra, kredit va lizing operatsiyalari brutto qiymati 35 442 896 790 ming so'm, zaxiralar 961 358 862 ming so'm, sof kredit portfeli 34 481 537 923 ming so'mni tashkil etdi². Taklifning amaliy tatbiqi natijasida kredit portfeli rentabelligi 2,8 foizga oshib, NPL ulushi 4,1 foizdan 2,6 foizga, ya'ni 5,2 foiz punktga pasaytirildi³.

Ikkinchi yo'nalishda RRI metodologiyasi kiritildi: bankning jalb qilingan depozitlari 27 813 mlrd so'mga yetib, foizsiz daromadlar 3 786 mlrd so'mni — jami daromadlardagi 24,9 foizini tashkil

¹O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari, 2026-yil 1-yanvar. — Toshkent: O'zMB, 2026.

²«Ipoteka-bank» ATIB. Moliyaviy hisobot, 2025-yil 31-dekabr (1-jadval — Bank balansi tarkibi). — Toshkent, 2026.

³«Ipoteka-bank» ATIB ning 2026-yil 13-apreldagi № 5-2.2/10992-sonli ma'lumotnomasi.

etdi⁴. To'rtinchi yo'nalishda KRK ko'rsatkichi bankning rivojlanish strategiyasiga kiritildi: regulativ kapital yetarliligi 19,8%, I darajali kapital 17,3%, LCR 255,9%, NSFR 127,4% ga yetdi⁵.

«Agrobank» ATB da KRK metodologiyasi bank faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari — yirik davlat ulushi va qishloq xo'jaligi sektoriga yo'naltirilgan strategiyaga moslashtirib joriy etildi. 2026-yil 1-yanvar holatiga bankning kredit portfeli 81 108 mlrd so'mga yetib, o'tgan yilga nisbatan 21 672 mlrd so'mga yoki 36,5 foizga ko'paydi. Milliy valyutadagi kredit portfeli 60 236 mlrd so'mni, xorijiy valyutadagi qism 20 872 mlrd so'mni tashkil etdi⁶. Tatbiq etish jarayonida ikki bank uchun olingan asosiy natijalar 1-jadvalda qiyosiy ko'rsatilgan.

1-jadval. KRK metodologiyasi tatbiq etilishi natijasida «Ipoteka-bank» ATIB va «Agrobank» ATB ko'rsatkichlari (2025-yil yakuni)⁷.

Ko'rsatkich	«Ipoteka-bank» ATIB	«Agrobank» ATB
Jami aktivlar, mlrd so'm	54 728	103 597
Kredit portfeli, mlrd so'm	34 481	81 108
Kredit portfeli o'sishi, %	+0,9	+36,5
Jalb qilingan depozitlar, mlrd so'm	27 813	33 585
Jismoniy shaxslar omonatlari o'sishi, %	+45,2	+59,5
NPL ulushi, %	2,6 (4,1 dan)	3,3 (3,8 dan)
Foizsiz daromadlar ulushi, %	24,9	30,4
Kapital yetarliligi (CAR), %	19,8	15,8
LCR (likvidlilikni qoplash), %	255,9	208
KRK ko'rsatkichi (2025)	0,765	0,688
RRI ko'rsatkichi (ball, 0–100)	85,7	69,2

Manba: Muallif tomonidan ikki bankning rasmiy moliyaviy hisobotlari asosida tuzilgan.

1-jadval ma'lumotlari KRK metodologiyasining ikki turli institutsional muhitda — xalqaro xususiy kapitalga ega bank (Ipoteka-bank) va davlat ulushi ustun bo'lgan strategik bank (Agrobank) — sharoitida samarali ishlashini ko'rsatadi. «Ipoteka-bank» sifat ko'rsatkichlari bo'yicha (NPL, CAR, LCR, KRK, RRI) yetakchilik qiladi, «Agrobank» esa hajm ko'rsatkichlari (aktivlar, kredit portfeli o'sishi, depozitlar o'sishi) bo'yicha ustun.


KRK ko'rsatkichining ikki bank uchun 2023–2028-yillardagi dinamikasi va prognozi 1-rasmda ifodalangan.

⁴«Ipoteka-bank» ATIB. Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot, 2025-yil 31-dekabr (3-jadval). — Toshkent, 2026.

⁵«Ipoteka-bank» ATIB. Prudensial me'yorlar hisob-kitobi, 2025-yil 31-dekabr (22-jadval). — Toshkent, 2026.

⁶«Agrobank» ATB. 2025-yil yakunlari bo'yicha moliyaviy hisobot va strategik ko'rsatkichlar. — Toshkent, 2026.

⁷Muallif hisob-kitoblari.



1-rasm. «Ipoteka-bank» ATIB va «Agrobank» ATB uchun KRRK ko'rsatkichining 2023–2028-yillardagi dinamikasi va prognozi (bazaviy stsensariy)⁸.

1-rasmdan ko'rinib turibdiki, «Ipoteka-bank» KRRK qiymati 2023-yildagi 0,620 dan 2025-yilga kelib 0,765 ga ko'tarildi va 2028-yilga 0,824 ga yetishi prognoz qilinmoqda — bu bank «juda yuqori raqobat» zonasida ($KRRK \geq 0,70$) barqaror joylashganligini ko'rsatadi. «Agrobank» KRRK qiymati esa 0,550 dan 0,688 ga ko'tarildi va 2028-yilga 0,738 ga yetishi kutilmoqda — bu bankning «yuqori raqobat» zonasidan «juda yuqori raqobat» zonasiga o'tishini bildiradi.

Olingan natijalar quyidagi xulosalar chiqarishga imkon beradi. Birinchidan, KRRK metodologiyasining turli institutsional muhitlarda samarali qo'llanilishi empirik tasdiqlandi. Ikkinchidan, KRRK joriy etilishi bank prudensial ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatdi — «Ipoteka-bank»da NPL 5,2 foiz punktga pasaytirilib, kapital yetariligi 19,8 foizga ko'tarildi. Uchinchidan, RRI tatbiqi bank daromadlari va depozit bazasining sezilarli o'sishini ta'minladi — «Agrobank» depozitlari 72,5 foizga oshdi.

Tezis natijalari quyidagi tavsiyalar uchun asos bo'ladi: (1) Markaziy bank tomonidan KRRK metodologiyasini choraklik makroprudensial monitoring vositasi sifatida joriy etish; (2) tizimli ahamiyatga molik banklar uchun KRRK ning minimal qiymati ($KRRK \geq 0,60$) belgilash; (3) «O'zbekiston — 2030» strategiyasi doirasida bank xususiylashtirish dasturini KRRK dinamikasi bilan bog'lab amalga oshirish; (4) RRI metodologiyasini barcha tijorat banklari uchun majburiy hisobotlilik vositasi sifatida joriy etish.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari, 2026-yil 1-yanvar. — Toshkent: O'zMB, 2026.
2. «Ipoteka-bank» ATIB. Moliyaviy hisobot, 2025-yil 31-dekabr holatiga. — Toshkent, 2026.
3. Ipoteka bank OTP Group. Financial Results 2025 under IFRS. — Tashkent: Ipoteka Bank, 2026.
4. «Agrobank» ATB. 2025-yil yakunlari bo'yicha moliyaviy hisobot va strategik ko'rsatkichlar. — Toshkent, 2026.
5. OTP Bank Plc. Annual Report 2025: Consolidated Financial Statements. — Budapest: OTP

⁸Muallif tomonidan tuzilgan.

Group, 2026.

6. Bank for International Settlements. Annual Economic Report 2022. — Basel: BIS, 2022.

European Bank for Reconstruction and Development. Transition Report 2024–25. — London: EBRD, 2024.

